



*Ra'noxon MO'MINOVA,*  
*Qo'qon DPI dotsenti,*  
*Masturaxon UMAROVA,*  
*Qo'qon DPI magistranti*  
*E-mail: ranokhon29@gmail.com*

*Qo'qon DPI biologiya kafedrasida dotsenti M.Axmadjonova taqrizi ostida*

## БИОЛОГИЯ ТА'ЛИМИДА О'QUVCHILAR MUSTAQIL TA'LIM OLISH FAOLIYATINI MAZMUNI

Аннотация

Maqolada biologiya ta'limida o'quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etishning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari imkoniyatlari, o'qitish didaktik maqsad va vazifalari asosida mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil etish asosida mantiqan, tahliliy fikrlash va o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatish asosida o'quv bilish faoliyatini tarkib toptirish yo'llari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mustaqil ishlar mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalari, biologiya o'qituvchilarining shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, o'quvchilarni o'quv bilish faoliyati.

## СОДЕРЖАНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ В БИОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье раскрываются возможности уникальных педагогических особенностей организации самостоятельной работы студентов в биологическом образовании, умения логически, аналитически мыслить и самоконтроля на основе организации самостоятельной и творческой работы исходя из дидактических целей и задач обучения. Выделены способы создания содержания учебной деятельности на основе обучения.

**Ключевые слова:** Содержание самостоятельной работы, ее формы обучения, методы, средства, саморазвитие учителей биологии как личности, учебно-познавательная деятельность учащихся.

## CONTENT OF ACTIVITIES OF STUDENTS TO RECEIVE INDEPENDENT EDUCATION IN BIOLOGY EDUCATION

Annotation

The article reveals the possibilities of unique pedagogical features of organizing independent work of students in biological education, the ability to think logically, analytically and self-control based on the organization of independent and creative work based on didactic goals and learning objectives. Methods for creating the content of educational activities based on learning are highlighted.

**Key words:** The content of independent work, its forms of teaching, methods, tools, self-development as a person of biology teachers, educational cognitive activity of students.

**Kirish.** Mamlakatimizda ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'qituvchilarning pedagogik faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, tabiiy fanlar, jumladan, biologiya fanini o'qitish samaradorligini o'ttirish va talabalarni o'quv bilish faoliyatini samarasini oshirishda mustaqil ta'limni tashkil etish va kasbiy faoliyatini shakllantirishda ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish kabi imkoniyatlar biologiyani o'qitishda mustaqil ta'lim olishning metodik shart-sharoitlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Mustaqil ish o'quvchilarning o'quv faolligini oshirishning samarali usullaridan biri bo'lib, u nafaqat bilimlarni ongli va doimiy o'zlashtirishga ta'sir qiluvchi, balki o'quvchilarda ular uchun ko'nikma va ko'nikmalarni shakllantirishga ta'sir qiluvchi intellektni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Mustaqil ish muammosi bo'yicha psixologik, pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, talabalar mustaqil ishining mohiyati, mazmuni va shakllarini aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud. Oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "biologiya fanlarini chuqur va mustaqil ta'lim o'rganishga mo'ljallangan didaktik materiallar yangi avlodlarini yaratish, o'quvchilarni darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllanishini ta'minlash kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarga asoslanib, biologiya fanini o'qitishda o'qituvchilarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini takomillashtirishning innovasion topshiriqlar bazasini ishlab chiqish va didaktik mazmunini aniqlash, biologiyani o'qitish mazmunida o'quvchilarni o'z hayotiy faoliyatini to'g'ri tahlil qilishga o'rgatish orqali biologik tafakkurini rivojlantirishga asos bo'luvchi bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga

asoslangan metodik tizimni uzviylik va izchillikda boshqarish imkoniyatini beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'quvchilarning mustaqil o'quv ishlarini samarali pedagogik boshqarish o'qitish jarayonida ijodiy faollik va mustaqillikning didaktik prinsipini ro'yobga chiqarish yo'llaridan biridir. O'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etish usullari oliy maktabda o'qitish nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy asarlarda ochib berilgan. V.P.Bespalko, E.Y.Golanta, S.I. Zinoyev, I.P. Kobilotskiy, T.V. Kudryavseva, N.V. Kuzmina, R.A. Nizamova, N.D. Nikandrova, I.T. Bog'dornikova, V.A.Slastenin va boshqalar tomonidan mustaqil ishlarni mazmuni, o'quv jarayonida qo'llashning metod va vositalari yoritib o'tilgan. Masalan, L.B.Itelsonning tadqiqotlarida mustaqil ishlashga o'qitish bilimlarni to'plash jarayonini boshqarish, kognitiv faollikni tashkil etish, tadqiqot faolligini imulatsiya qilish, kognitiv tuzilmalarni to'plash jarayonini boshqarish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash faolligini oshirish, o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishning individual ishlash metodlari izohlab berilgan.

Biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari: A.T.G'ofurov, S.S.Fayzullayev, J.O.Toshpo'latova, M.X.Lutfullayev, G.S.Ergasheva, N.J.Toshmatov, M.N.Ibodovalar tomonidan tadqiq etilgan. Uzlüksiz ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil qilish, ta'lim oluvchilarda mustaqil o'quv malaka va ko'nikmalarini shakllantirish muammolari bo'yicha A.Arxa'ngelskiy, V.P.Bespalko, E.P.Slastenin, N.A.Muslimov, O'.Q.Tolipov, J.Tolipova kabi olimlar izlanishlar olib borganlar. R.Saidov tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish Esipov

B.P, A.K.Gromcheva va Y.U.Derajnelar mustaqil ta'limga o'rtax maxsus ta'lim tizimida bo'lajak kichik mutaxassislarining kasbiy shakllantirish omili sifatida qarab, uning tashkiliy va uslubiy muammolari haqida izlanishlar olib borgan. «O'quvchilar bilimlarni mustaqil, ijodiy darajada egallashi uchun ular o'zining bilish faoliyati predmetini va u bilan qanday ishlashni bilishi kerak. Bunga ularni maxsus o'rgatish lozim». O'quvchilar biologik ta'lim bo'yicha mustaqil o'quv – ijodiy faolligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'qitish qonuniyatlarini o'zlashtirishi mumkin bo'lgan alohida shakl va usullarini ajratish kerak. Ta'limning ma'lum ketma-ketligi va usullaridan iborat bo'lgano'qitish metodlari o'quvchilarni o'z ustida ishlashga o'rgatuvchi ta'lim uchun xizmat qiladi, balki o'zi ham o'zlashtirish predmeti sanaladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Har qanday mustaqil ish o'quvchilarni qo'ldan keladigan va ularning diqqatini jalb eta oladigan hamda o'quv dasturida mos bo'lishi kerak. Har bir mustaqil ishning bajarilishi yuzasidan o'qituvchi o'quvchilarga aniq ko'rsatmalar berishi kerak. Bunda yangi materialni o'zlashtirayotganda talabalar oldin ko'rgan, eshitgan, bilib olgan narsalariga tayanishi zarur bo'ladi. Har qanday narsa ilgari o'zlashtirilgan eski narsalarga asoslanadi, ular bilan uyg'unlashib, keyingi ta'lim uchun mustahkam baza yaratadi. Agar o'quvchilar bilimlar, g'oyalari, tushunchalarni egallab, yangi o'zlashtirilgan bilimlarga ularga asoslanadigan bo'lsa, har bir yangi bo'g'inning ongli ravishda bilib olinishiga keng yo'l ochiladi.

O'quv topshirig'i muammosi fikrlash faoliyatini faollashtirishga imkon beradi, biroq ularning har biri ham ilmiy darajada pedagogik va psixologik tushunchalarni mustaqil shakllantirishga olib kelmaydi. Shu bois pedagogik va texnik-texnologik mustaqil ishlarni ishlab chiqishda o'quv muammolarining didaktik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Mustaqil ishlar o'quvchining ijodiy faoliyatiga imkon yaratish bilan bog'liq. Bunday topshiriqlarni bajarishda o'quvchining bilish faoliyati biologik obyekt yoki jarayonning mohiyatiga tobora chuqurroq kirib borib, ilgari noma'lum bo'lgan yangi g'oyalarni qidirib topish va yangi ma'lumotlar olish uchun zarur bo'lgan munosabatlarni o'rnatishdan iborat. Bunday topshiriqlarni bajarishi uchun o'quvchi o'zi yaratishi lozim bo'lgan g'oya va yangi faoliyatning mohiyati, u yoki bu ma'lumot ustida bosh qotirishga majbur bo'ladi [6].

**Tahlil va natijalar.** Umumiy o'rtax ta'lim maktablarida o'quvchilarni mustaqil va uyushqoqlik bilan ishlash ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish hamda o'zlashtirish uchun o'quv jarayoni davomida mustaqil ishini tashkil etish masalasini hal etish bo'yicha ilg'or nuqtayi nazarni taqdim etadi. E.Ya.Golantning "o'quvchilarni mustaqil ishlari to'g'risida" monografiyasida o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish umumiy o'rtax ta'limning muhim vazifalaridan biri ekanligi ta'kidlangan. Ularga mustaqil ishlash orqali malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish va o'quv jarayonining barcha shakllarida hamda ularning faoliyatining barcha turlarida: "darslarda tinglash, kitob ustida ishlash, laboratoriya ishlari, ishlab chiqarish amaliyotida mustaqillikni rivojlantirish vazifasi yuklatiladi. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarining professional tayyorligini takomillashtirish masalalari S.I.Arhangelskiy, V.P.Bespalko, V.A.Slastenin, U.N.Nishonaliyev, A.A.Abdugodirov, A.R.Xodjaboev, R.Xasanov, N.Saidaxmedov, O'.Q.Tolipov, S.S.Bulatov, N.A.Muslimov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosini tashkil etadi. O'quvchilarning mustaqil ishi – individual yoki jamoaviy o'quv faoliyati bo'lib, o'qituvchining bevosita rahbarligisiz amalga oshiriladi. Tashkil etish jihatdan mustaqil ish frontal (sinf

bilan birgalikda) – o'quvchilar bir xil topshiriqni hammasi bajaradi; guruhi – topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar guruhi 3-6 o'quvchi shakllantiriladi; juftlikda – tajribalar o'tkazishda; individual-har bir o'quvchi uchun alohida topshiriqlar tizimi shakllantiriladi. Mustaqil ishning eng ko'p tarqalgan turi: darslik bilan ishlash, ma'lumot materiallar yoki birlamchi manbalar bilan ishlash, masalalar yechish, bayon, kuzatish, loyihalash, modellashtirish va h.k [6].

Taxlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarda mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli, metod va vositalari ta'lim mazmunini yoritishda muhim metodik ahamiyatga egaligi ta'kidlab o'tilgan. O'quvchilarda biologiya fanlarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quvchilardan innovatsion va kreativ yondashuvga asoslangan metodik vazifalarni amalga oshirishni talab etadi. O'quvchilarning mustaqil ishlarni tashkil etishda quyidagi jihatlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: o'quvchilarning aqliy, irodaviy va jismoniy kuchlarini talab etuvchi ishlar; bilish yoki amaliy vazifalar xarakteridagi ishlar; muammoli vaziyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi ishlar; qo'yilgan bilish va amaliy xarakterdagi vazifalar yechimini topishda ijodiy yondashuvni talab etuvchi mustaqil ishlar; o'z faoliyatini rejalashtirish, uni ilmiy tashkil etish, boshqalarning yordamisiz vazifalarni bajarish, ish natijalarini maqsadga qiyoslab baholashni ko'zda tutuvchi ishlar; muntazam ravishda ishning borishi, natijalarni nazorat qilish, kerakli hollarda o'zgartirishlar kiritish va amalga oshirishni takomillashtirib borishni ko'zda tutuvchi ishlar; qo'yilgan vazifalarni to'laqonli bajarishga kirishish, bu o'z navbatida o'quvchi shaxsini yaxlit rivojlantirishga imkon berib, aqliy va amaliy faoliyat usullari, o'z ustida ishlash va ijodkorlikning shakllanishiga yordam beradi [6].

O'quvchilarning mustaqil ta'limni faollashtirish uchun pedagogik jarayon muhim pedagogik tushunchaga e'tibor berish lozim. "Pedagogik jarayon bu o'qituvchi va o'quvchilarning rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalarni tashkil etishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan maqsadga muvofiq o'zaro munosabatidir". Pedagogik jarayon - bu talabalar va o'qituvchilarning bevosita o'zaro munosabatlarida rivojlanishiga yordam beruvchi usha tarkibiy qismlar (omillar) ning bir butunligiga integratsiyalashuvidir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rmida aytish joizki, mustaqil ta'limni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish o'quvchilar bilan individual ishlash va ularni o'quv faoliyatini bevosita nazorat qilishga keng imkoniyat yaratishi aniqlandi. Shuningdek har bir talaba fanga ta'lluqli bo'lgan mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'quv portfoliosiga joylashtirish va o'z o'zini nazorat qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi nazarda tutildi. Mustaqil ta'lim shakli talabaning fan yuzasidan ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, har qanday shakldagi mashg'ulotlarda intellektual tashabbus va tafakkurni rivojlantirish uchun pedagogik - didaktik sharoitlarni yaratishga asos bo'ladi. Biologik talimda o'quvchilar uchun mustaqil ishlarni tashkil etishda samarali metodik yondashuv va vositalar, didaktik tarqatmalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar mustaqil ishining samaradorligi uning metodik ta'minoti bilan bog'liqdir. Darsliklar, o'quv va metodik adabiyotlar, topshiriqlar va vazifalar banki, fan bo'yicha axborot resurslari mustaqil ishning metodik ta'minotini tashkil etadi. Fanning xususiyati, o'quvchining bilim darajasi va qobiliyatiga qarab alohida mavzular mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Esipov B.P. Darslarda talabalarining mustaqil ishi. // RFSFR Shshpros nashriyoti. - M., 1991. - 239 b.
2. Arhangelskiy S.I. Oliy ta'limning ayrim yangi vazifalari va pedagogik mahoratga qo'yiladigan talablar. M.: 3 bilim. 1986. -30 b.
3. Toshpo'latov U.D. Talabalarining mustaqil ishlari o'qitish vositalari. // Xalq ta'limi.2000.№3.-34-38 b.
4. Derazhne Yu. Mustaqil talim olish tizimi. // Kasb-hunar talimi . 2001. № 6. - 10 -12.
5. Isabayeva M., Karimova D. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik mazmuni./ O'zMU XABARLARI
6. VESTNIK NUUZ 2022 1/4, 2022, 85-89 betlar
7. Ibodova M. Biologiyadan o'quvchilarning mustaqil ishlarni axborot resurslari vositasida takomillashtirish metodikasi (akademik I iteylar misolida)...p.f.f.d ( PhD), - 2019y, 160b